

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

XAMIDULLAEV JANGABERGEN UBBINIYAZOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON EKSTREMAL SHAROITIDA BEDA
BIOTSENOZI ZARARLI OMILLARIGA QARSHI KURASH
CHORALARINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY ASOSLARI**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Xamidullaev Jangabergen Ubbiniyazovich

Qoraqalpog‘iston ekstremal sharoitida beda biotsenozi zararli omillariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishning ilmiy asoslari..... 3

Хамидуллаев Жангаберген Уббиниязович

Научные основы разработки мер борьбы против вредных факторов биоценоза люцерны в экстремальных условиях Каракалпакстана 19

Khamidullaev Jangabergen Ubbiniyazovich

Development of a scientific justification and measures to combat the harmful factors of alfalfa biocenosis under extreme conditions of Karakalpakstan 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 40

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

XAMIDULLAEV JANGABERGEN UBBINIYAZOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON EKSTREMAL SHAROITIDA BEDA
BIOTSENOZI ZARARLI OMILLARIGA QARSHI KURASH
CHORALARINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY ASOSLARI**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Qx186 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzilida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toreniyazov Elmurat Sheriniyazovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Haytmuratov Arslonbek Fayzullaevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Xolliev Asamiddin Turayevich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent


Etakchi tashkilot:

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03. 2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning «22» 07 2023 yil soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (71) 260-48-00; faks: (71) 260-38-60; E-mail: tuag-info@edu.uz Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 549062 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (71) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «6» 07 da tarqatildi.
(2023 yil «6» 07 dagi 11- raqamli reestr bayonnomasi)



G.R.Xolmurodova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, q.x.f.d.,
professor

A.A.Iminov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
q.x.f.d., professor

M.E.Saidova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
dotsent



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo davlatlarida chorvachilikdan olinadigan mahsulotlarni ko'paytirishda yem-xashak uchun foydalaniladigan bedaning o'rni beqiyos bo'lib, undan ekologik toza yem-xashak tayyorlash imkoni mavjud bo'lgan xom-ashyo olinadi. Beda deyarli 10 ming yil oldin kashf etilgan o'simlik turi hisoblanib, bugungi kunda beda ekiladigan maydonlar butun dunyoda 80 dan ortiq mamlakatlarda qariyb 35 mln. gektarni tashkil etadi¹. Beda pichani tarkibida protein, karotin vitaminlari ko'pligi, vegetatsiya davrida 3-4 marta o'rib olish imkoni mavjudligidan, ko'pgina davlatlarda, yem-xashak tayyorlashdan tashqari, ekilgan dalalardagi tuproq unumdorligini oshirish hamda asalari boqishda keng foydalanib kelinayotgan asosiy ekin turi sanaladi, shu sababli beda ekinini zararli omillarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi².

Dunyoning yetakchi davlatlari hisoblangan: Hindiston, Amerika, Eron, Gretsiya, Italiya, Xitoy, Shimoliy Afrika, Rossiya, Ukraina, Belarusiya kabi xorijiy davlat olimlar tomonidan beda o'simligidan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, bugungi kunda ko'k beda, sariq beda, zangori beda va xmelimon bedaning bir nechta navlari joriy etilgan. Shu bilan birga, beda va urug' hosilini oshirish, zararli omillardan himoya qilishdagi yangi texnologiyalarning ilmiy asoslari ishlab chiqilib, natijada gektaridan yuqori pichan va urug' hosilini olish muhim ahamiyat kasb etadi³.

Respublikamiz sharoitida oddiy ko'k bedaning madaniy navlaridan Toshkent-3192, Toshkent-1, Qaraqalpaq-1, Qaraqalpaq-15 va Xiva mahalliy navlari asosiy qishloq xo'jalik ekini sifatida ko'p yillardan buyon ekilib, shimolda joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi agrobiotsenozida 1980 yillarga qadar 32-34 ming gektar maydonni egallagan bo'lsa, 2000 yili 28-30 ming, 2010 yili 18-20 ming va 2015-2016 yillarda 12-14 ming gektarga kamayganligi hisobga olindi⁴. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida Qoraqalpog'iston agrobiotsenozida 2017 yili 10 ming gektarga beda urug'i ekilgan bo'lsa, 2018-2020 yillarda 7,2 ming tonna beda urug'ini yetishtirib, ichki bozorlarda sotish, eksport qilishga rejalashtirilgan strategiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «...o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish choralarini ishlab chiqish va joriy etish» bo'yicha ustuvor yo'nalishda vazifalar belgilangan⁵. Beda maydonlari kamayishidagi asosiy muammolar, suv tanqisligi va beda o'simligi o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladigan biotik omillardan: zararkunanda, kasallik va begona o'tlar keltiradigan zarar mezonining maksimal darajaga yetishidir. Bugungi

¹ <https://www.masseeds-ru.com>

² <https://direct.farm>

³ <https://wikifarmer.com>

⁴ <https://www.stat.uz>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. -Toshkent, 2017. -B. 33-34.

kunda mazkur salbiy biotik omillarga qarshi kurash tadbirlaridagi mavjud muammolarni ilmiy asosda bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PQ-5853-son qarori⁶, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-iyuldagi «BMT Bosh Assambleyasining 2021 yil 18-maydagi maxsus rezolyutsiyasida «Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida»gi PQ-5202-son qarori⁷ topshiriqlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda bajarilishi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bada biotsenozida tarqalib, o‘simlikka zarar keltiradigan biotik omillardan hisoblangan zararkunandalari (hasharotlar, kanalar) turlarini aniqlash va salbiy ta‘sirilarini bartaraf etishda jahonda W.H.Day, M.C.Miller, M.Wilson, K.V.Novojilov, N.S.Karavyanskiy, A.M.Devyatkin, I.T.Deordiev, G.G.Djilkibaeva, V.L.Gafurova, O.D.Niyazov, E.Meyrmanov, T.Sh.Kubieva, G.B.Fayzieva, A.A.Sinitsina, A.I.Beliy kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning natijalari keng miqyosda foydalanib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududi beda dalalarida tarqalgan zararkunanda turlarini aniqlash bo‘yicha N.Maxmudxodjaev, T.K.Hamdani-Zoda, B.Odilov, M.Yu.Bayramov, M.G.Ismailov, G.Sh.Shamuratov, N.G.Shamuratova, E.Sh.Toreniyazovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa, asosiy kasalliklari M.Karimov, X.Yuldashev, N.S.Mirpo‘latova, R.Atamuratovlar tomonidan va dalada uchraydigan begona o‘tlari tur tarkibi Sh.Sh.Muxamedjanov, S.A.Nerozin, B.Muxiddinovlar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Ammo tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, beda dalasida to‘planib biotsenoz tarkibiga kirgan hasharotlar tur tarkibi, zarar keltiradigan turlar rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi, qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etishni o‘rganishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan ushbu biotsenozda to‘planib, rivojlanadigan zararkunanda, kasallik va begona o‘tlarning ko‘pgina turlarining mazkur agrobiotsenozda ekologik omillar elementlari o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan rivojlanish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha kompleks turda olib borilgan maxsus tadqiqotlar etarli emasligi isbotlandi. Shu sababli bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Respublikamiz sharoitida bajarilgan QXI-5-036-2016

⁶ <https://lex.uz/pdfs/4567334>

⁷ <https://lex.uz/uz/pdfs/5538638>

«Qoraqalpog‘iston sharoitida sabzavot-poliz ekinlarida tunlamlar, shira turlariga qarshi takomillashtirilgan biologik uslubni qo‘llashni joriy etish» (2016-2017 yy.), I-QX-2017-5-29 «Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bedani xavfli hasharotlardan fitonomusdan (*Phytonomus variabilis* Hbst.) himoya qilishning intensiv-iqtisodiy texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish» mavzularidagi amaliy loyihalari doirasida va davomi sifatida bajarilgan (2017-2018 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog‘iston agrobiotsenozi beda biotopida tarqalgan zararli omillar, jumladan zararkunanda turlari, bioekologik rivojlanishi, dinamikasi va zarar keltirish mezoniga ta‘sir etadigan omillarni aniqlash, qarshi qo‘llanilayotgan kurash tadbirlarining ilmiy asoslangan usullarini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston agrobiotsenozi beda biotopida tarqalgan zararli omillar, jumladan zararkunanda turlarining keltiradigan zarar mezonini bo‘yicha dominant turlari rivojlanish bioekologiyasiga ta‘sir qiladigan abiotik, biotik omillarni aniqlash, statsiyalar bo‘yicha dalalarga migratsiya qilish mezonlarini o‘rganish;

beda biotsenozida tarqalgan entomoakarifaglar tur tarkibini aniqlash, tarqalgan zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarini qo‘llashning maqbul vaqti va me‘yorini ishlab chiqish;

beda biotopida ko‘payib, boshqa statsiyalarga migratsiya qiladigan zararli omillarga qarshi maqbul usullarni qo‘llash tadbirlarini takomillashtirish va joriy qilishga tavsiya etish;

beda zararkunandalariga qarshi qo‘llaniladigan agrotexnik, biologik va kimyoviy usullar elementlarini, bir-biriga bog‘lik darajada «Uyg‘unlashgan qarshi kurash tizimi»ga kiritishning maqbul me‘yori va vaqtini belgilash;

asosiy zararkunandalarga qarshi olib boriladigan kurash tadbirlarining biologik, xo‘jalik-iqtisodiy samaradorligini asoslash va ishlab chiqarishda joriy etish uchun tavsiya berish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Qoraqalpog‘iston agrobiotsenozida ekilayotgan beda navlari, biotopda tarqalgan zararli omillar, hasharotlardan zararkunanda, entomofag va akarifaglar turlari olingan.

Tadqiqot predmeti beda biotsenozi zararkunandalarining bioekologik rivojlanishi, dinamikasi, zarar keltirish mezonini, zararliligi bo‘yicha dominant turlariga qarshi agrotexnik, biologik, kimyoviy kurash tadbirlarini tashkil qiladigan samarali usullarni takomillashtirish.

Tadqiqotning usullari. Qoraqalpog‘iston agrobiotsenozi beda biotopida ekilayotgan beda navlari dalalarida qo‘llaniladigan agrotexnik tadbirlar B.Yu.Yusupov (1987) usullari asosida; beda dalalarida tarqalgan hasharot, kanalar turlarini aniqlash, namunalar yig‘ishda B.P.Adashkevich (1983), V.B.Golub (1980), K.K.Fasulati (1971), K.S.Artoxin (2000; 2010), K.V.Novojilov (1984), Sh.T.Xo‘jaev (2004); begona o‘tlari B.G.Aliev va b. (1981); kasalliklari T.I.Zaxarova, I.I.Minkevich (1975), V.I.Bilay va b. (1982), K.Kiray va b. (1974), M.A.Litvinov (1969), M.K.Xoxryakov va b. (2003), A.E.Chumakov (1974); zararli ob‘ektlarning zarar keltirish mezonlarini aniqlashda V.I.Tanskiy (1981; 1988), V.T.Alexin va b. (2016), R.I.Shekochixina, A.P.Miznikova (1981) uslubiy ko‘rsatmalaridan foydalanildi. Zararli ob‘ektlarga qarshi kurash olib borishda

X.X.Kimsanboev v.b. (2007), N.R.Goncharov va b. (1982), Sh.T.Xo'jaev v.b. (2004) uslublaridan foydalanilib, usullarning biologik samaradorligi V.Abbot (1925) formulasi, iqtisodiy samaradorlik esa K.A.Gar (1967), A.F.Chenkin (1979) uslubi, tajriba variantlari maydonini tanlash, joylashtirish, qaytariqlarni belgilash, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish uchun B.A.Dospexov (1986), Sh.Nurmatov va b. (2007) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, Qoraqalpog'iston sharoitidagi beda maydonlarida uchraydigan hasharotlarning o'simlikga zarar keltiradigan turlari, ularning tarqalishi, rivojlanishi, bioekologiyasi va keltiradigan zarari bo'yicha dominant turlarining tavsifi hamda kelib chiqish sabablari aniqlangan;

mazkur biotopda rivojlanadigan zararkunanda turlarining bioekologik rivojlanishiga abiotik, biotik omillar hissasi, bedaning zararli omillarga ko'rsatadigan reaksiyasi belgilangan;

bugungi kunda, mazkur hududning beda biotopida o'simlikning ixtisoslashgan zararkunandalaridan: fitonomus, beda qandalasi, akatsiya yoki beda shirasi, maysa filchasi, beda urug'xo'ri, beda tunlami; boshqa biotoplardan migratsiya qiladigan: kuzgi tunlam, undov tunlami, qizil boshli shpanga kabi turlari rivojlanib zarar keltirishi aniqlangan;

beda dalalarida rivojlanayotgan fitonomus soniga bog'liq 1 m² maydonda 1-6 dona qurtlari rivojlanganda 0,11-0,27 kg quruq pichan turidagi yem-xashak, gektaridan 1,3-9,4 kg urug', beda qandalasi 0,02-0,38 kg yem-xashak, gektaridan 0,1-33,1 kg urug', kuzgi tunlam qurtlari 0,108-1,119 kg yem-xashak, 0,02-0,11 kg urug', undov tunlami 0,115-0,974 kg yem-xashak, 0,03-0,14 kg urug', qizil boshli shpanga 0,125-1,647 kg yem-xashak, 0,01-0,25 kg urug', o'rgimchakkana 0,085-2,088 kg yem-xashak, gektaridan 0,2-1,8 kg urug' hosilini yo'q etishi isbotlangan;

beda dalasida paydo bo'ladigan zararli omillarga qarshi kurash tadbirlaridan agrotexnik usul tashkillashtirilganda biologik samaradorligi 63,3-78,8%, tunlamlarga qarshi biologik usul qo'llanilganda 83,2-90,5% va turlar soni ko'paygan dalalarda kimyoviy preparatlar ishlatilganda esa 94,6-99,3% biologik samaradorlikka erishiladigan ilmiy yangiliklar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi beda biotopida zararli biotik omillardan tarqalgan areallari, keltiradigan zarar mezoni bo'yicha zararkunandalarning ko'plab turlarining rivojlanishi, hosilni kamaytiradigan asosiy omil sifatida belgilab berilgan;

zararkunandalarga qarshi olib boriladigan kurash tadbirlarini ekologik omillar elementlari o'zgarishi sharoitidan kelib chiqib agrotexnik, biologik va kimyoviy usullarining samarali elementlari ishlab chiqilgan;

tunlamlarning rivojlanishi boshlanishidan biolaboratoriyada ko'paytirilgan trixogramma biotopga doimiy tarqatib borilganda, entomofagning tabiiy populyatsiyasi ko'payib, zararkunandalar sonini kamayishiga erishilgan;

beda zararkunandalariga qarshi ishlab chiqarishda qo'llanilib, kutilgan samaradorlikka erishish uchun ishlatilgan 5% em.k. karate, 57% em.k. fufanon, 20% em.k. fenkill, 30% n.kuk. benzofosfat va 25% em.k. tsipermetrin preparatlari

va analoglarining maqbul me'yorlari, qo'llash vaqti va usullari ishlab chiqilib, joriy etish uchun tavsiya etilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-tadqiqotlarda bedaning asosiy va ikkinchi darajali zararkunandalari turlari o'rganilganligi, qarshi kurash olib borishdagi tadqiqotlarning dala va laboratoriya tajribalari zamonaviy uslub va vositalardan foydalanib o'tkazilganligi. Natijalari esa nazariy va eksperimental tadqiqotlardan olingan yangiliklar matematik va statistik tahlillarga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan xulosa va tavsiyalar beda biotopida olib borilayotgan boshqa tadqiqotchilar natijalarini kengaytirib, to'ldirilganligi, olingan ilmiy hamda amaliy natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi beda biotopida zarar keltiradigan zararkunandalardan: fitonomus (*Phytonomus variabilis* Hbst.), beda qandalasi (*Adelphocoris lineolatus* Coeze.), maysa filchasi (*Sitona cylindricollis* F.), beda urug'xo'ri (*Bruchophagus roddi* Guss.) va tashqaridan migratsiya qiladigan kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Den. et Schiff.), undov tunlami (*Agrotis exclamationis* L.), qizil boshli shpanga (*Epicauta erythrocerhala* Pall.) turlarining tarqalishiga o'simlik turlari, dalada mavjud bo'lgan mikroiklim hamda abiotik, biotik omillarning ta'siri va ahamiyati belgilab berilgan. Zararkunandalarning individual rivojiga, mavsumiy dinamikasiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etadigan omillarning ilmiy ahamiyati isbotlangan. Qarshi kurash tadbirlarini olib borish zarurati bo'ladigan zararkunandalarning iqtisodiy zarari miqdor mezonlarini aniqlashga muvaffaq bo'lingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati beda dalasidagi mavjud biotsenoz omillarini hisobga olib zararkunandalarga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy usullarni qo'llash vaqti, muddati, me'yori belgilab berilgan. Jumladan, asosiy zararkunandalari hisoblangan fitonomus, beda qandalasi, beda urug'xo'ri, maysa filchasi, akatsiya shirasi turlarining soni iqtisodiy zarar miqdor mezonidan ko'tarilganda esa kimyoviy preparatlarni ishlatish reglamenti tavsiya etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi beda biotopida paydo bo'ladigan zararli omillarni aniqlab, rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi, zarar keltirish mezoni asosida turlariga qarshi «Uyg'unlashgan himoya qilish tizimi»ni yaratish, mavjudlarini takomillashtirishdagi olingan ilmiy muhim natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish asosida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy, Kegeyli, Nukus tumanlari beda dalalarida mikroiklim sharoitida rivojlanadigan zararkunandalardan fitonomus qurtlari, beda qandalasi va beda urug'xo'ri sonini bartaraf etish uchun tadqiqot natijalari 356 ga beda dalasida joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 16-noyabrdagi №01/024-3366-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, beda dalalarida paydo bo'lib, zarar keltirayotgan zararkunandalarga qarshi agrotexnik kurash tadbiridan, mart oyida dalani ikki marta uzunasi va ko'ndalaniga borona bilan ishlov berib, sug'orilganda fitonomus

soni 63,3%, beda qandalasi 70,4% va beda urug‘xo‘ri 78,8% kamayib, biologik kurash tadbiri sifatida tunlam tuxumlariga qarshi trixogramma entomofagi tarqatilganda 10-kuni 83,2-88,7%, 20-kuni 86,2-90,5% biologik samaradorlikka erishilgan bo‘lsa, zararkunanda soni ko‘paygan dalada tavsiya etilgan kimyoviy preparatlar ishlatilganda fitonomus va beda qandalasi avlodlarining 94,6-99,3% yo‘q qilinib, zararkunandalar tufayli nobud bo‘ladigan hosil saqlab qolingan.

Respublikaning Chimboy, Kegeyli va Nukus tumanlari beda biotopiga tashqaridan migratsiya qiladigan zararkunandalaridan kuzgi va undov tunlamlari feromon tutqichlar yordamida zararkunandalar sonini aniqlash maqsadida beda dalasida qarshi kurash tadbirlari joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 16-noyabrdagi №01/024-3366-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, zararkunandalarga qarshi tavsiya etilgan kimyoviy preparatlar ishlatilganda gektaridan 65,4-75,5 tsentner yem-xashak, 27,9-47,9 kg urug‘ himoya qilinib, tadbirning iqtisodiy samaradorligi yem-xashak etishtirishda 1256,0-1454,0 ming so‘m va urug‘ni himoya qilishda 6979,0 ming so‘mni tashkil qilib, ishlatilgan 1 so‘m 2,52-3,76 so‘m hisobida qoplangan.

Respublikaning Chimboy va Nukus tumanlari beda dalasidagi o‘simliklarda fitonomus, beda qandalasi va beda urug‘xo‘rining aniqlanib, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlari joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2022 yil 18-noyabrdagi №23-15/01-2126-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, fitonomus soni 63,3%, beda qandalasi 70,4%, beda urug‘xo‘ri 78,8% kamayganligi, tunlam tuxumlariga qarshi trixogramma entomofagi tarqatilganda biologik samaradorligi 86,2-90,5%, bedaning ixtisoslashgan zararkunandalariga qarshi kimyoviy himoya qilish uchun ishlatilgan dalada 94,6-99,3% avlodlari yo‘q etilgan samaradorlikka erishilganligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotlari Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida maxsus tuzilgan komissiya a‘zolari tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilgan. Dissertatsiya doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi natijalari asosida 13 ta ilmiy ish chop etilib, shulardan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan 2 ta xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida va 2 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot

ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning **«Beda biotsenozi zararkunandalari turlari, qarshi kurash tadbirlarini olib borish istiqbollari»** deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar sharhiga bag'ishlangan bo'lib, unda mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy manbalar, internet ma'lumotlari hamda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarning natijalari va dissertatsiya ishi bajarilgan hududda o'tkazilgan ilmiy ishlar natijasi chuqur tahlil qilingan, ma'lumotlar yuzasidan xulosalar chiqarilib, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot o'tkazish uchun qo'llanilgan uslublar, agroiqlim sharoiti tavsifi»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotni o'tkazish uslublari hamda tadqiqot ishlari olib borilgan hududning tuproq, agroiqlim sharoitlari bayon etilgan.

Beda biotopida uchraydigan hasharotlar, kasallik va begona o'tlar turlarini aniqlashdagi kuzatuvlar entomologiya, fitopatologiya, o'simliklarni himoya qilish ilmida tan olingan uslublar asosida olib borilib, hasharotlar, zararkunanda va entomofaglar turlari B.P.Adashkevich (1983), N.V.Bondarenko (1986), V.B.Golub va b. (1980), I.G.Kiriyak (1984), K.V.Novojilov (1984) va boshqa olimlar tomonidan tuzilgan aniqlagichlar yordamida aniqlandi. Zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarining biologik samaradorligi Gar (1963; 1967), K.V.Novojilov (1984), Sh.T.Xo'jaev va b. (1994; 2004; 2018), X.Kimsanboev va b. (2007), X.Mirzalieva (1986) uslublaridan, yig'ilgan ma'lumotlar asosida V.S.Abbot (1925) formulasidan foydalanilib, o'tkazilgan qarshi kurash choralarining biologik samaradorligi hisoblangan.

Iqtisodiy samaradorligini hisoblash, rentabellik darajasi va boshqa ko'rsatkichlari A.F.Chenkin (1979), Sh.T.Xo'jaev va b. (1994; 2004; 2018) uslublaridan, tajriba variantlari maydonini tanlash, joylashtirish, qaytariqlarni belgilash, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish uchun B.A.Dospexov (1986), Sh.Nurmatov va b. (2007) metodik usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlarning «o'rtacha xatoligi» va variantlar orasidagi eng kichik farq (EKF) O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot institutining «Monitoring va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'limi»da yaratilgan kompyuter dasturi asosida aniqlandi.

Tadqiqotlar o'tkazilgan Chimboy, Kegeyli, Nukus tumanlarining 2016-2021 yillar davomidagi o'rtacha havo harorati, nisbiy namligi hamda yog'ingarchilik me'yorlari «Chimboy» meteostantsiyadan olingan ma'lumotlardan foydalanilib, tahlil qilindi va natijalari dissertatsiya ishiga kiritildi.

Dissertatsiya natijalarini ifoda qilishni boshlagan **«Beda biotsenozidagi bioxilma-xillikda o'simlik va zararkunandalar o'rtasidagi ozuqa zanjirining ilmiy asoslari»** deb nomlangan uchinchi bobning 3.1-3.3-§. bo'limlarida beda biotopi mikroiklimini o'rganish, rivojlanadigan o'simlik, hasharot va

zararkunandalar uchun asosiy omillardan hisoblangan havo harorati va nisbiy namligi o'zgarishlarining biologik organizmlarga ta'siri aniqlandi.

Kuzatuvlar natijasi asosida beda o'simligi vegetatsiya davri boshlanishi bilan vegetativ a'zolari faol rivojlanib, ko'k massasi ko'payib dala yuzasini to'la qoplaganligi, o'simlikning tup soni zich bo'lganligi bois havo haroratining tashqariga nisbatan biroz past darajada saqlanib turishi ta'minlanganligi isbotlangan. Natijada beda biotopidagi havo harorati tashqi muhitga nisbatan iyul oyida 3,0-4,0°C, avgustda 2,0-3,0°C past, havoning nisbiy namligi tashqi muhitdan 4,0-6,0% yuqori bo'lganligi qayd etilib, vujudga keladigan mikroiklim elementlari biotopda hasharotlar turining foal darajada rivojlanishi uchun qulay bo'lishini taqozo etadi. Natijada, bedaning ixtisoslashgan zararkunandalaridan: fitonomus, beda qandalasi, akatsiya shirasi, beda urug'xo'ri, maysa filchasi bilan birga kuzgi tunlam, undov tunlami, karadrina, qizil boshli shpanga, g'o'za oqqanoti, o'rgimchakkana turlari tarqalib, o'simlikka salbiy ta'sir etishi, entomofaglardan esa: xon qizi, oltinko'z, sirfid pashshasi, apanteles, ninachilar, beshiktervatar, taxina pashshasi turlari biotsenozning ahamiyatli elementlari sifatida o'simlikka ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Biotopdagi zararkunandalar rivojlanish bioekologiyasi va dinamikasiga beda kasalliklari, dalada paydo bo'ladigan begona o'tlarning hissasi bo'lishi isbotlandi.

Dissertatsiyaning «**Beda biotopida uchraydigan zararkunandalarning rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi, keltiradigan zarari**» deb nomlangan to'rtinchi bobi 4.1-§., 4.2-§. va 4.3-§. bo'limlarida bedaning ixtisoslashgan va qishloq xo'jalik ekinlari dalalarida rivojlanib mazkur biotopga migratsiya qiladigan zararkunandalari turlari, tarqalgan areallari, rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi keltiradigan zarar mezoni, o'simlikning o'sib-rivojlanish fazalariga va tashqi muhitning abiotik omillari elementlarining o'zgarishlariga bog'liq bo'lishi biologik organizmlar orasidagi bioxilma-xillik qonuniyatlari asosida vujudga kelishi isbotlandi.

Bedaning asosiy zararkunandasi sifatida fitonomusning rivojlanish fenogrammasi o'rganilganda qishlab chiqqan etuk zoti aprel oyining uchinchi o'n kunligidan boshlab dalada paydo bo'lib, tuxum qo'yishni boshlab, may oyi oxirigacha bedazorlardagi qurtlari soni 1 m² soni 27,8-31,3 donagacha ko'payib, beda tuplarida 21,5-28,2 dona fitonomus g'umbaklari uchraganligi qayd etildi (1-fenogramma).

Fitonomus qo'ng'izi beda dalasida 22-26 kun hayot kechirib, bitta onalikdan kelgusi avlodning 1021,5 donasi ko'payib, qurtlarning 81,6% g'umbakka va g'umbaklarning 67,3% (1021,5 dona) kelgusi avlod qo'ng'izlari chiqib rivojlanishi davom etayotgani aniqlangan. Qurtlari soni 1 m² dalada 1-2 dona bo'lganda ko'k massaning 0,022 kg, 3-4 donasi 0,124 kg, ko'rsatilgan sonlar urug' uchun qoldirilgan dalada rivojlanganda 1 gektar maydondan 1,3-2,2 kg urug'ni kamaytirib, urug'ni unuvchanligi 0,3-0,9% pasayganligi qayd etilgan tadqiqotlar natijasi olinganligi isbotlangan.

Bedaning asosiy so'ruvchi zararkunandalaridan hisoblangan beda qandalasi aprel oyi ikkinchi o'n kunligidan boshlab qishlovdan chiqib, rivojlanish dinamikasi tashqi muhit omillariga bog'liqligi aniqlangan (1-rasm). Zararkunanda vegetatsiya

davri oxirigacha dalaning 1 m² da 0,2-5,6 donagacha rivojlanib, bitta qandala 0,01 kg, 4-5 donasi 0,11-0,22 kg, 6 tadan oshganda 0,73-0,89 kg yem-xashakni kamaytirib, gektaridan 0,1-25,8 kg urug'ni yo'q etishi to'la isbatlangan.

1-fenogramma

Fitonomusning rivojlanish fenogrammasi
Chimboy, Kegeyli, Nukus tumanlari, 2017-2019 yy.

Ko'rsatkichlar	Aprel			May			Iyun			Iyul			Avgust			Sentyabr		
	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
Havo harorati, °C	10,9	14,4	15,7	21,5	22,7	22,9	24,7	26,5	28,5	30,1	30,2	29,6	28,3	24,5	23,3	20,9	20,4	16,0
Nisbiy namlik, %	48	48	49	33	42	39	35	35	36	39	37	38	38	39	42	44	42	48
Yomg'ir, mm	1,2	9,3	6,9	2,2	3,7	1,1	0,5	2,3	0,1	-	-	0,9	-	1,9	0,0	-	-	0,6
Bedaning rivojlanish fenologiyasi																		
Fitonomus rivojlanish fazalari	Etuk zoti	+	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	Tuxum	-	-	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	Qurti	-	-	-	+	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	G'umbagi	-	-	-	-	-	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	Etuk zoti	-	-	-	-	-	-	+	+	+	-	-	-	-	+	+	+	+



Izoh: -- uchramadi, +- uchradi

Bundan tashqari beda dalasining 1 m² da beda urug'xo'ri 2,2-3,7 donagacha uchrab, 1-2 donasi 0,8-1,2 kg, 3-4 donasi 2,6-4,8 kg urug'ni kamaytirib, sifatini pasayishiga olib keladigan tur sifatida, tashqaridan migratsiya qiladigan kuzgi va undov tunlamlari kapalaklari feromon tutqichlarga bir tunda 12,3-22,8 donagacha ushlanib, kuzgi tunlam qurtlari soni 1 m² da 1-2 dona uchraganda 0,108-0,313 kg, 3-4 dona bo'lganda 0,418-0,705 kg, 5 va undan oshganda 1,119 kg yem-xashak me'yor kamayishi va sifatining pasayishidagi biotik omil sifatida taqozo etilgan. Qizil boshli shpanga qo'ng'izi 1 m² da 1 donasi gektaridan 0,125 kg yem-xashak, 1 gramm urug', 10 donagacha etganda 0,427 kg yem-xashak, 8 gramm urug' kamayib, barg, poya va mevalarni kemirib, to'la nobud etishi qayd etilgan.

Beda o'simligida uchraydigan kasalliklaridan un-shudring iyun oyi oxirigacha 5,1-6,2%, avgustda 10,2-11,6%, fuzarioz dastlab 5,3-7,5%, iyul oyi ikkinchi o'n kunligiga qadar 10,3-19,5% o'simlikda, qo'ng'ir va sariq dog'lanish kasalliklari 5,3-6,3%, zang kasalligi 3,1-4,5% o'simlikda, gulli parazit zarpechak 5,9-14,3% o'simlikda ko'payib, bedaning o'sib-rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan biotik omili hisoblanib, qarshi kurash tadbirlarini olib borish tavsiya etilgan.

Dissertatsiyaning «**Bedaning asosiy zararkunandalariga qarshi kurash usullarini qo'llashning ilmiy asoslari**» deb nomlangan beshinchi bobi 5.1-§., 5.2-§., 5.3-§-bo'limlarida beda dalasida tarqalib zarar keltiradigan asosiy turlarga va tashqaridan migratsiya qilib dalaga to'planadigan turlariga qarshi agrotexnik, biologik kurash tadbirlarini qo'llashdagi, soni ko'payganda ishlatilgan kimyoviy

preparatlarning zararkunanda turlariga qarshi me'yorlarining biologik, xo'jalik-iqtisodiy samaradorligi aniqlangan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.




Izoh: beda qandalasi 1 m² maydondagi o'simliklarda, dona

1-rasm. Beda biotopida tarqalgan beda qandalasining rivojlanish dinamikasi
(Chimboy, Nukus tumanlari)

Bugungi kundagi asosiy natija sifatida beda dalasida tashkillashtirilgan agrotexnik tadbirlardan, mart oyida dalani ikki marta uzunasi va ko'ndalaniga borona bilan ishlov berib sug'orilganda fitonomus soni 63,3%, beda qandalasi 70,4% va beda urug'xo'ri 78,8% kamayganligi, dalaga migratsiya qilgan tunlamlar tuxumlariga qarshi trixogramma tarqatilgandan keyingi 10-kuni biologik

samaradorligining 83,2-88,7%, 20-kuni 86,2-90,5% ni tashkil qilishi tadbirni keng maydonlarga joriy etishni ifoda etadi.

Bedaning asosiy zararkunandasi sifatida fitonomus qurtlariga qarshi ishlatish tavsiya etilgan kimyoviy preparatlarning turlari va me'yori ishlov berilgandan 3 kun o'tishi bilan 74,5-87,3% qurtni nobud etgan bo'lsa, 7-kuni 92,9-96,1%, 14-kuni esa 97,5-98,8% biologik samaradorlikka erishilganligi qayd etilgan (2-rasm).



2-rasm. Fitonomus qurtiga qarshi ishlatilgan kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi

Chimboy tumani, 2019-2021 yy. (Dala tajribasi, 1,0 ga, 200 l/ga suv sarfi hisobidan)

Beda dalasida rivojlanib, zarar keltiradigan zararkunandalardan himoya qilinganda hosil me'yori, sifatiga bog'liq bo'lmagan darajada ishlatilgan xarajatlar ko'rsatkichlari va himoya qilingan hosil me'yerining bahosiga bevosita bog'liq bo'ladigan muammolar mavjudligi qayd etilgan. Beda dalalarida asosiy zararkunandalarga qarshi olib borilgan kurash usulida, tadbirning himoya qilib qolgan hosil me'yorini ta'minlash jarayonlarini aniqlash uchun dala va ishlab chiqarish tajribalarida, tadbir o'tkazilgan nazorat dalasiga nisbatan himoya qilib qolgan hosil me'yori hisoblab borilib, tavsiya etilayotgan qarshi kurash tadbirining xo'jalik-iqtisodiy samaradorligi hisoblangan (1-jadval).

Natijada beda dalasida tarqalib zarar keltiradigan beda qandalasiga qarshi tavsiya etilgan kimyoviy preparatlarni qo'llab gektaridan 31,0 kg, fitonomusga qarshi ishlatilgan dalalardan 68,7-70,7 tsentner yem-xashak himoya qilinganligi isbotlangan. Beda dalasida rivojlanadigan fitonomus va beda qandalasiga qarshi ishlatilgan kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi 94,6-99,3% tashkil qilgan dalalarda tadbirni tashkillashtirish uchun sarflangan 1053,0-1148,0 so'm mablag', himoya qilib qolgan hosil hisobidan to'la qoplanib, tadbirning iqtisodiy

Beda zararkunandalariga qarshi kimyoviy usulda himoya qilishning xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligi (Nukus tumani, 2021 y.)

Ko‘rsatkichlar	Beda qandalasiga qarshi, urug‘		Fitonomusga qarshi, yem-xashak			
	Karate, 0,15 l/ga	Nazorat (ishlov berilmadi)	Karate, 0,15 l/ga	Fufanon, 0,6 l/ga	Tsipermetrin, 0,24 l/ga (andoza)	Nazorat (ishlov berilmadi)
Hosildorlik, <i>ts/ga</i>	321,6	290,6	412,5	411,5	409,5	340,8
Saqlab qolingan hosil, <i>ts/ga</i>	31,0	-	71,7	70,7	68,7	-
Vositaning narxi, <i>ming so‘m/ga</i>	125,0	-	120,0	118,0	213,0	-
Usulni ishlatish uchun sarflangan mablag‘, <i>ming so‘m/ga</i>	60,0	-	60,0	60,0	60,0	-
Saqlab qolingan hosilni yig‘ish va tashish xarajatlari, <i>ming so‘m/ga</i>	875,0	-	875,0	875,0	875,0	-
Himoya qilishga sarflangan umumiy xarajat, <i>ming so‘m/ga</i>	1060,0	-	1055,0	1053,0	1148,0	-
Ishlab chiqarish xarajatlari, <i>ming so‘m/ga</i>	2120,0	2120,0	1970,0	1970,0	1970,0	1970,0
Sarflangan umumiy xarajatlar, <i>ming so‘m/ga</i>	3180,0	2120,0	3025,0	3023,0	3118,0	1970,0
Hosilning bahosi, <i>ming so‘m/ga</i>	11200,0	10150,0	14437,0	14402,0	14332,0	11928,0
Umumiy sof foyda, <i>ming so‘m/ga</i>	8020,0	1050,0	11412,0	11379,0	11214,0	9958,0
Nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorlik, <i>ming so‘m/ga</i>	6970,0	-	1454,0	1421,0	1256,0	-
Sarflangan 1 so‘mning qoplanishi, <i>so‘m</i>	2,52	-	3,72	3,76	3,59	-
Ishning rentabellik darajasi, %	252	-	372	376	359	-

samaradorligi yem-xashak etishtirishda 1256,0-1454,0 so‘mni, urug‘ himoya qilinganda 6970,0 so‘mni tashkil qilib, ishlatilgan 1 so‘m 2,52-3,76 so‘m hisobida qoplanib, rentabellik darajasi 252-376% gacha ko‘tarilganligi isbotlanib, tavsiya ishlab chiqarishga joriy etilganda ko‘rsatilgan samaradorlikka erishilganligi maxsus idoralar ma’lumotlari bilan tasdiqlangan.

XULOSALAR

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi shimoliy tumanlari agrobiotsenozida beda urug‘ini bahorgi – mart oyi oxirigacha, kuzgi – avgust oyida ekilib, bedazorlarning 76,2% da yem-xashak, 23,8% da urug‘ mahsulotlari etishtirilib, yem-xashak uchun birinchi o‘rim iyun oyi birinchi o‘n kunligi, ikkinchi o‘rim – iyul ikkinchi o‘n kunligi, uchinchi o‘rim esa avgust oxirida amalga oshirilib, urug‘ etishtiriladigan dalada sentyabr oyida urug‘ yig‘ib olinishi qayd etildi.

2. Bedazorlarda vujudga keladigan mazkur mikroiklim sharoiti bedaning ixtisoslashgan zararkunandalaridan: fitonomus, beda qandalasi, akatsiya shirasi, beda urug‘xo‘ri, maysa filchasi, tashqaridan migratsiya qiladigan: kuzgi tunlam, undov tunlami, karadrina, qizil boshli shpanga, g‘o‘za oqqanoti, o‘rgimchakkana, entomofaglardan esa: xon qizi, oltinko‘z, sirfid pashshasi, apanteles, ninachilar, beshiktervatar, taxina pashshasi turlari biotsenozning asosiy biotik omillari hisoblanishi isbotlandi.

3. Fitonomusning qishlovdan chiqqan etuk zoti aprel oyi oxiridan boshlab beda dalalarida paydo bo‘lib, qurtlari soni 1 m² soni 27,8-31,3 donagacha ko‘payib, beda tuplarida 21,5-28,2 dona fitonomus g‘umbaklari uchraydi. Onalik zoti 22-26 kun hayot kechirib, bitta onalikdan 1021,5 dona qurtlari ko‘payib, 81,6% g‘umbakka va g‘umbaklarning 67,3% (1021,5 dona) dan kelgusi avlod qo‘ng‘izlari rivojlanib 1 m² da 1-4 dona qurtlari 0,022-0,124 kg yem-xashakni va 1 ga maydondan olinadigan 1,3-2,2 kg urug‘ni nobud etishi aniqlandi.

4. Beda qandalasi vegetatsiya davrida 1 m² da 0,2-5,6 donagacha rivojlanib, 0,01-0,89 kg yem-xashakni kamaytirib, gektaridan 0,1-25,8 kg urug‘ni, beda urug‘xo‘ri 2,2-4,8 kg urug‘ni nobud qilib, sifatini pasaytishi aniqlandi.

5. Bedaning ikkilamchi zararkunandalaridan kuzgi va undov tunlami kapalaklari feromon tutqichlarga bir tunda 12,3-22,8 donagacha ushlanib, qurtlari soni 1 m² da 1-4 donasi 0,108-0,705 kg yem-xashak, 30-35% urug‘ini, qizil boshli shpanga 1 m² da 1-10 donasi 0,125-0,427 kg yem-xashak, 8 gramm urug‘ni kamaytirib, poya va meva elementlarini to‘la nobud etishi isbotlandi.

6. Beda o‘simliklarida rivojlanadigan kasalliklari keng tarqalganda bedaning o‘sib-rivojlanishiga salbiy ta‘sir etishidan tashqari, vujudga kelgan fiziologik jarayonlar biotopdagi zararkunandalar rivojlanish dinamikasiga ta‘sir etishi isbotlangan. Biotopda tarqaladigan bir va ko‘p yillik begona o‘tlar turlari dalaga tashqaridan migratsiya qiladigan zararkunandalarning rivojidadagi ijobiy biotik omillardan hisoblanishi aniqlandi.

7. Beda dalalarida paydo bo‘lib, zarar keltirayotgan zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlar olib borilib, tadbir o‘tkazilmagan dalaga nisbatan fitonomus soni 63,3%, beda qandalasi 70,4% va beda urug‘xo‘ri 78,8% kamayganligi, tunlam tuxumlariga qarshi trixogramma tarqatilib 86,2-90,5% biologik samaradorlikka erishildi.

8. Bedaning asosiy ixtisoslashgan zararkunandalaridan kimyoviy himoya qilish uchun qo‘llanilgan Karate 5% em.k. 0,10-0,15 l/ga, Fufanon 57% em.k. 0,2-0,6 l/ga, Fenkill, 20% em.k. 0,3-0,6 l/ga, Benzofosfat 30% n.kuk. 1,5-3,2 kg/ga sarf-me‘yorida ishlatilganda fitonomus va beda qandalasi avlodlarining 94,6-

99,3% yo‘q qilinib, gektaridan 65,4-75,5 tsentner yem-xashak, 27,9-47,9 kg urug‘ himoya qilinib, tadbirning iqtisodiy samaradorligi yem-xashak etishtirishda 1256,0-1454,0 so‘mni, urug‘ himoya qilinganda 6970,0 so‘mni tashkil qilib, ishlatilgan 1 so‘m 2,52-3,76 so‘m hisobida qoplandi.

9. Bedaning asosiy zararkunanda turlariga qarshi:

- bahor va kuz oylarida agrotexnik tadbirlarni maqbul vaqt, usulda o‘tkazish;
- kuzgi va undov tunlami tuxumlari qo‘yilgan joylarga 200 000 dona hisobida biolaboratoriyada ko‘paytirilgan trixogrammani tarqatish;
- zararkunandalar soni ko‘payganda tavsiya etilgan kimyoviy preparatlardan: Karate, 5% em.k. 0,10-0,15 l/ga, Fufanon, 57% em.k. 0,2-0,6 l/ga, Fenkill, 20% em.k. 0,3-0,6 l/ga, Benzofosfat, 30% n.kuk. 1,5-3,2 kg/ga me‘yorida traktorga osilgan purkagich agregatlar yordamida gektariga 200-300 litr suv bilan aralashtirib ishlatishda yuqori biologik, xo‘jalik-iqtisodiy samara beradigan usullarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИИ**

ХАМИДУЛЛАЕВ ЖАНГАБЕРГЕН УББИНИЯЗОВИЧ

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ МЕР БОРЬБЫ ПРОТИВ
ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ БИОЦЕНОЗА ЛЮЦЕРНЫ В
ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА**

06.01.09 – Защита растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2020.3.PhD/Qx186.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tdau.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Торениязов Елмурат Шериниязович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: Хайтмуратов Арелонбек Файзуллаевич
доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Холлиев Асамиддин Тураевич
доктор философии по сельскохозяйственным наукам,
доцент

Ведущая организация: Научно-исследовательский институт генетических ресурсов растений

Диссертация доктора философии (PhD) состоится « 22 » 07 2023 года в 11³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/04.03.2023.Qx.13.01 при Ташкентском государственном аграрном университете (Адрес: 100164, Ташкентской области Кибрайский район, ул. Университета, дом 2. Тел.: (71) 260-48-00; факс: (71) 260-38-60; E-mail: tuag-info@edu.uz Актовый зал, 2-этаж, Административное здание Ташкентского государственного аграрного университета).

С диссертацией доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (Зарегистрирован № 549062) (Адрес: 100164, г. Ташкентской области Кибрайский район, ул. Университетская, 2-й корпус, здание информационно-ресурсного центра Ташкентского государственного аграрного университета. Тел.: (71) 260-50-43).

Автореферат диссертации разослан « 6 » 07 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 11 от « 6 » 07 2023 года)


Г.Р.Холмуродова
председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

А.А.Иминов
секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

М.Э.Саидова
приседатель научного семинара при ученом совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В странах мира, при увеличении получаемой с животноводства продукции, значение используемой для корма люцерны несравнимо, она считается сырьем, позволяющим заготавливать экологически чистые корма. Люцерна – это вид растений, который был открыт почти 10 тыс. лет назад, и на сегодняшний день посевная площадь люцерны составляет около 35 млн. гектаров в более чем 80 странах мира¹. В составе сена люцерны содержится большое количество протеина, каротина, имеется возможность получения 3-4 укусов за вегетационный период, её широко используют во многих странах для заготовки кормов, повышения плодородия почвы, а также содержания пчёл, и посевные площади с каждым годом увеличиваются. Поэтому одной из актуальных задач считается разработка мероприятий по борьбе с вредными факторами урожая люцерны².

В развитых зарубежных странах мира, таких, как Индия, Америка, Иран, Греция, Италия, Китай, Северная Африка, Россия, Украина, Белоруссия учёными проводятся исследования по эффективному использованию люцерны, и на сегодняшний день внедрено несколько сортов люцерны синей, люцерны желтой, люцерны голубой и люцерны хмелевидной. Вместе с тем, для повышения урожая люцерны и семян, защиты от вредных факторов разработаны научные основы новых технологий, в результате это имело важное значение в получении высокого урожая сена и семян³.

В условиях нашей республики в качестве основной сельскохозяйственной культуры много лет высеваются такие местные сорта люцерны синей, как Тошкент-3192, Тошкент-1, Каракалпак-1, Каракалпак-15 и Хива, и если до 1980 года в агробиоценозе, расположенном на севере Республики Каракалпакстан, культура занимала 32-34 тысячи гектаров, то к 2000 году площадь составила 28-30 тысяч, к 2010 году – 18-20 тысяч, а к 2015-2016 годам снизилась до 12-14 тысяч гектаров⁴. С целью преодоления данных проблем, если в 2017 году в агробиоценозе Каракалпакстана было высеяно семян люцерны на 10 тысяч гектаров, то в 2018-2020 годах было выращено 7,2 тысяч тонн семян люцерны и принята стратегия по планированию реализации их на внутреннем рынке и экспорту. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве приоритетных задач отмечено «... разработка и внедрение мер защиты растений от болезней и вредителей»⁵. Основными проблемами при сокращении площадей под посевами люцерны являются дефицит воды, а из биотических факторов, негативно влияющих на рост и развитие растений

¹ <https://www.masseeds-ru.com>

² <https://direct.farm>

³ <https://wikifarmer.com>

⁴ <https://www.stat.uz>

⁵ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы». –Ташкент, 2017. –С. 33-34.

люцерны: вредители, болезни и сорняки, достигшие максимального уровня критерия вредоносности. На сегодняшний день одной из актуальных задач является устранение на научной основе существующих проблем в мероприятиях по борьбе против этих негативных биотических факторов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»⁶ и с целью выполнения поручений Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-5202 от 29 июля 2021 года «О мерах по реализации специальной резолюции Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций от 18 мая 2021 года «Об объявлении региона Приаралья зоной экологических инноваций и технологий»⁷, а также других нормативно-правовых документов, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

